

YUQORI MALAKALI O'QITUVCHI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI O'QUV MATERIAL BAZA REJASINI MODERNIZATSIYALASH

Murtazayev Melibek Zokirovich¹, Shokirova Ra'no Shodiqulovna²

¹A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti

²A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi magistranti

e-mail: ranobozorova5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy ishda oliy ta'limda o'quv jarayonining samarasiga ta'sir qiluvchi o'quv rejalarini talabiga ko'ra muvofiq o'quv material baza rejasini tuzish masalasi ko'rib chiqilgan.*

Kalit sozlar: *Mustaqil ijodkorlik, oliy maktab, ishlab chiqarish.*

Аннотация: *В данной исследовательской работе рассматривается разработка учебной базы в соответствии с требованиями учебной программы, которая влияет на эффективность образовательного процесса в высшей школе.*

Ключевые слова: *Самостоятельное творчество, высшей школа, производство.*

Annotation: *This research paper examines the development of an educational base in accordance with the requirements of the curriculum, which affects the effectiveness of the educational process in higher education.*

Key words: *Independent creativity, high school, production*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish va joriy etish vaziflari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Yuqori malakali o'qituvchi kadrlar tayyorlash tizimi (YUMO'KTT) faoliyatini tashkil qilish va boshqarish jarayonida amaliy va nazariy hamda individual mustaqil mashg'ulotlarni tashkil qilishda plakati, jadval, sxema, tablitsa,

model, o'qitishni kichik gabaritli laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini o'quv qurollari, asbob-uskunalar, stanok, moslamalar, texnikaviy naturalar kinofilmlar, kompyuter va boshqa kerakli o'quv jihozlari juda muhim rol o'ynab, bo'lgusi mutaxassisni o'zlashtirish, ko'nikmalarni egallash jarayonini tezlashtiradi.

Xo'sh shunday ekan, tizim faoliyatidagi barcha material-texnik ta'minotini topish, tarqatish, joylashtirish, ekspluatatsiya qilish kabi funksiyalarni tahlil qilgan holda tizimni ushbu funksiyasini muvofiqlashtirishni ko'rib chiqsa bo'ladi. Buning uchun tizimni hozirda material texnik ta'minoti qaysi ahvolda, ulardan qanday foydalaniladi kabi muammolarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Eng avvalo tahlil qilish va uni faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- oliy ta'lim material texnik ta'minotini xususiyatini aniqlash;
- boshqarish funksiyasi bilan material – texnik ta'minotni ilmiy-o'quv faoliyatini o'zaro bog'liqligini asoslash;
- oliy maktab material texnik ta'minotini tashkillashtirishni tahlil qilish;
- oliy maktab material-texnik ta'minotini amaliy saviyasini oshirishni uslubiy dasturini asoslash;
- oliy maktab material texnik ta'minotini muvofiq boshqarishni uslubiyatini ishlab chiqish.

YUMO'KTT material-texnik ta'minotini xarakteristikasini boshqarish ob'ekti sifatida tabiatni material texnik ta'minoti sifatida qarab, ishlab chiqarish vositalarini aylanishi va taqsimotidagidek tashkillashtirish ta'minoti jarayoniga (material texnik ta'minoti iqtisodiga) ushbu sohani qo'shish zarurligini asoslanishi kerak bo'lgan sifatida qaraladi.

Bunday qo'shish uchun ishlab chiqarish vositalarini va ushbu istemol predmetlarni muomalada bo'lishini umumiyligi asos bo'lib xizmat qiladi. Bu umumiylik nafaqat halq xo'jaligini sohalarini tashkillashtirishdagi bir xil va shu nomlanishdagi material resurslarni yaratuvchi material texnik oqimlarni boshqarish tizimi.

Ilmiy tashkilot va oliy maktab boshqa ishlab chiqarmaydigan sohadagi tashkilotlardan asosiy fondini apparatli aktiv qismi tez ma'naviy eskirish bilan farq qiladi (1 yilda 25 %). Bunday sharoitda o'z vaqtida texnik vositalarga ega bo'lishi va ularni tashkilotlar tomonidan realizatsiya qilishga imkon bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Shunga mos holda material texnik ta'minoti funksiyasini material resurs kelishi bilan ta'minlanganidek tashkilotlar orqali resurslarni harakati bilan ta'minlanguncha material texnik ta'minot funksiya mohiyati kengayadi.

YUMO'KTT material texnik ta'minotini talab asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan va tizimni ilmiy potensialini realizatsiya qiladigan hamda material resurslardan tejimli foydalanish talablarini qondirish uchun

iste'mol predmetlarini rejali bir me'yorda harakat (kelish va ketish)lanish jarayonini o'quv-ilmiy faoliyat shartiga mos holda aylanishi amalga oshiriladi.

YUMO'KTT material texnik ta'minotini asosiy vazifalari oliy maktablarni material resurslari bo'lgan extiyojini aniqlash va rejalashtirish, oliy maktablarni rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan talabnomalari bo'yicha uyushgan holda tayyorlash ishlarini tashkillashtirish, zahiralarni boshqarish, qimmatli materiallarni topish va ularni foydalanishga tayyorlash kabilar hisoblanadi.

Oliy maktabni material resursga bo'lgan talab hajmi va murrakablashuvini o'sishi bilan ta'minotni boshqaruv vazifasi murakkablashib boradi, oliy maktab ko'pincha material va jihozlarni defitsit turini mo'ljallashtiradi, masshtab ko'payadi va foydalanish talab resurslar nomenklaturasi yangilanadi, foydalanish talabini rejalashtirish qiyinlashadi.

Bu o'zgarish birinchi navbatda oliy maktab talimini fan masshtabini tez o'sishiga olib keladi. YUMO'KTT material texnik ta'minot vazifasini yechish yangi usulda oliy maktabni ko'proq murakkablashgan sharoitda, boshqarish bilan, hamda foydalanish bo'limlarini ko'pincha ta'minotini realizatsiya jarayoniga qaytish bilan bajariladi. Boshqa tomondan ta'minot xodimlari ayrim vaqtlarda defitsit material resurslarni topib quyish va taqsimot qilishga ta'sir qiluvchi rejadan tashqari bo'lgan foydalanish talabiga yo'liqadi va majbur holda qaror qabul qiladi. Keyingi paytlarda oliy maktab mazmuni munosabatlarda o'quv-ilmiy faoliyatlari birlashadi, material texnik ta'minoti realizatsiya jarayonida, qaysikim boshqarish ta'minot orqali bo'lsin sifatida bu hodisani oliy maktab ilmi fani rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Ayniqsa, yirik bo'lgan oliy maktablarda oliy maktablarni boshqarishda ta'minot orqali boshqarish munosabati paydo bo'lishi oliy maktab ilmiy potensialini realizatsiya qilish uchun uni faoliyati qayta ko'rish birdan-bir to'g'ri yo'l hisoblanadi. Boshqarish aynan shu sub'ektlari oliy maktabni boshqaruvi, oliy maktab bo'limlarini boshqaruvi hamda ta'minot xodimlar organlari bo'ladi.

Oliy maktab material texnik bazasi murrakablashuvi va tez o'sishi ilmiy xizmat, texnik xizmat kabi material resursga iste'molini tashkillashtirilganiga javob beradigan ta'minotini boshqarish sub'ektlari soni ko'payadi. Aynan bunday xizmatlar oliy maktabda foydalanishni yiriklashtirish va kafedra va laboratoriyalarni jihozlar va moslamalarga bo'lgan iste'molini asosli ravishda hisobga oladi.

Oliy maktabni rivojlanishni intensiv yo'lga o'tkazish uchun ilmiy-o'quv bo'limlarni talabini to'liq qondirish maqsadida moslashtirishni ko'paytirish maqsadga mivofiqdir. Asosan bunday moslashtirish material resurslar oqim birligini oliy maktab tashkilotlari orqali o'tishga hamda o'quv-ilmiy faoliyati materiallarga bo'lgan talabi bilan bog'liq material resurslarni iqtisodiy tejashlarga xizmat qiladilar.

Bu iste'molni ta'minlovchi ta'minot, prokat, yordamchi ishlab chiqarish va boshqa har xil funksiyalar bunda yirik oliy maktablarni boshqarish amaliyotida qisman material texnik ta'minot deb ataladigan umumiy bo'lgan funksiyaga birlashadi. Oliy maktab rivojlanishi bilan ta'minot boshqarish kengroq vazifalarni o'z ichiga oladi va material texnik ta'minotni boshqarish sifatida namoyon bo'ladi. Oliy maktab ta'minot jarayonini moslashtirishni ta'minlashga qadar tashkilot – oliy maktablarga talablari yig'indisi mavjud va ularni markaziy ta'minlash organlari orqali qondirish haqidagi informatsiya ma'lumotlarni jamlaydigan ta'minot bo'limi (MJTB) hisoblanadi. Shu bilan birga oliy maktab material oqimlarini boshqarishda MJTB qatnashishi ayrim sabablarga ko'ra yetarli emas, qaysi kim faqatgina boshqarish funksiyasini moslashishini moslashtirish sifatini tushirib qolmasdan, oliy maktab ta'minot tizimini rivojlanishini maktabni to'liq rivojlanishidan qolishiga olib keladi. Bu sabab maktab bo'lganlarini boshqarishda MJTB qatnashish huquqini beruvchi uning vakolatli inteergal xarakteristikasi sifatida MJTB status tushunchasi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

MJTB statusini yetarli emasligi asosan yuqori solishtirma hajmida ilmiy – tadqiqot ishlar va katta hajmdagi ta'minotli murakkab ichki strukturasi xarakterlovchi, tabiiy-ilmiy va texnik yo'nalishdagi yirik oliy maktablar faoliyatida seziladi. Buni yetakchi oliy maktab va oddiy maktab faoliyat ko'rsatkichlarini ilmiy tahlil va taqqoslashda yaqqol ko'rish mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar yirik oliy maktablarni ta'minotini markaziy boshqaruvini yetarli emasligini kompensatsiya qiladigan ta'minotni tashkillashtirishning markazlashmagan firmasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu oliy maktab material resurslar va kadrlar tizimini konsentratsiyasini (yig'ilishida, jalb etilishida, yiriklashuvida) pastki darajalarida aks etadi.

Ta'minotni markazlashgan boshqaruvini yetarli emasligini boshqa bo'limi MJTB rivojlanishi butun oliy maktab rivojlanishidan keyin qolishidir. Ko'pincha oliy maktablarda hozirgi vaqtda muhim masala material texnik ta'minotni ta'minlashda kadrlar masalasi hisoblanadi. MJTBni mavjud normativ aktlar shtatlarni o'qiydiganlarni soniga ko'ra aniqlaydi, qaysikim oliy maktab ta'minotini haqiqiy dinamikasini ifodalaydi. Buni biz oliy maktablarni bir necha o'n yilligini ilmiy tahlil qilganimizda o'qiydigan kontingent oshib borishini, ta'minot va uni xodimlarini shunga mos oshmaganligini guvohi bo'lamiz.

Ilmiy – o'quv faoliyatda MJTB samarali tashkillashtirish asosan oliy maktab bo'limlarida material texnik resurslardan uyushgan holda foydalanish formasini yurgizish hisoblanadi. Bu darajada ta'minotni tashkillashtirish ko'proq iste'molga yaqinlashadi texnik xizmat ko'rsatish xatto ilmiy xizmat ko'rsatish bilan uzviy bog'liq holda bo'ladi. Shuning uchun ta'minotni boshqarish bu yerda materialli texnik ta'minotni boshqarish sifatida tahlil qilinadi. Oliy maktablarni o'quv-ilmiy

faoliyatlari material texnik ta'minotga bo'lgan talablarni material resurslarni tejalagan holda to'liq qondirish maqsadida MJTB samarali tashkil qilishda quyidagicha talablarga amal qilish kerak.

Oliy maktablarda o'quv-ilmiy bo'limlarini material resurslar bilan ta'minlashda ularni material javobgar shaxslarga emas balkim, o'quv yurti bo'limlariga berkitib qo'yish maqsadga muvofiq, iste'molni e'tiborga olgan holda material texnik xizmatni kompleks holda amalga oshirish, jihozlardan foydalanish uyushmalarini tashkil etish va boshqa talablar.

Ana shu talablarni mujassamlashtirgan holda oliy maktablarda material texnik ta'minotni tashkillashtirish va uni boshqarish vazifasini bo'limlari orqali bajarishni yo'lga qo'yish material texnik ta'minotini yaxshilashga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisda Murojaatnomasi.
2. I.A.Karimov Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. O'zbekiston.1995.-23.b
3. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: Fan, 2005
4. M.Z.Murtazayev Kasbga yo'naltirish diagnostikasi. 2020 yil 110 bet.
5. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
6. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования)
7. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
8. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ФАКУЛЬТЕТОВ ТРУДА И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ). *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
9. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

- 10.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
- 11.Муртозаев, М. З., Юсупов, К., & Рахматов, В. (2008, October). Системный подход к определению практической значимости учебной дисциплины. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование для устойчивого развития». Материалы VI Международной конференции. г. Минск* (pp. 2-3).
- 12.Муртозаев, М. З. (2009). О сегодняшнем состоянии учебных планов подготовки учителей трудового обучения: проблемы и решения.
- 13.Муртозаев, М. З. (2016). Вопросы модернизации процесса подготовки высококвалифицированных учителей трудового обучения. *Молодой ученый*, (24), 484-486.
- 14.Мамажонова, К., Murtazayev, M., & Gapparov, B. (2020). PAZANDACHILIK ASOSLARI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 15.Murtazayev, M. Z., & Yo'ldashev, M. Q. (2020). TEXNOLOGIYA TALIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI. *Научное знание современности*, (4), 39-44.
- 16.Муртазаев, М. З., & Дониёрова, Ш. Э. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ МИЛЛИЙЛИК АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИШ АСОСЛАРИ. *Научное знание современности*, (3), 25-28.